



UDK:398.9=20(045)

Dilshoda IBRAXIMOVA,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, PhD
E-mail: tyrayevna1969@mail.ru

Qarshi davlat universiteti professori X.Jabborov taqrizi asosida

MAQOLLAR, MATALLAR VA ULARNING O'RGANILISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqol-matallar va naql har bir millat va xalqning milliy-madaniy qarashlari, turmush-tarzi va hayotiy xulosalari hosilasi sifatida tilning leksik qatlamidan o'rin egallaydi. Ular axloqiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi hikmatli iboralaridir. Paremlar semantik, funktsional, komponentik jihatdan bir-biridan farq qiladi, shunga ko'ra maqol, matal, kabi kichik guruhlariga bo'linadi. Ushbu maqolada paremlarning frazeologik birliklarning alohida bir guruhi sifatida ingliz va o'zbek tillarida o'rganilishi va ularning xoslanish masalasi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Maqol, matallar, parema, majoziy-emotsional ma'no, kommunikativ guruh, ijod mahsuli.

PROVERBS, SAYINGS AND THEIR STUDY (ON THE EXAMPLES OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Annotation

Proverbs and sayings occupy a place in the lexical layer of the language as a product of the national-cultural views, lifestyle and life conclusions of each nation and people. They are wise expressions that have moral and educational significance. Parables differ from each other in semantic, functional, componential terms, and are accordingly divided into small groups such as proverbs, sayings, etc. This article deals with the study of parables as a separate group of phraseological units in English and Uzbek and the issue of their assimilation.

Key words: Proverb, sayings, parable, figurative-emotional meaning, communicative group, creative product.

ПОСЛОВИЦЫ, ПОГОВОРКИ И ИХ ИЗУЧЕНИЕ (НА ПРИМЕРАХ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

Пословицы и поговорки занимают место в лексическом пласте языка как продукт национально-культурных воззрений, образа жизни и жизненных выводов каждой нации и народа. Это мудрые выражения, имеющие нравственно-воспитательное значение. Притчи отличаются друг от друга в семантическом, функциональном, компонентном отношении и соответственно делятся на небольшие группы, такие как пословицы, поговорки и т. д. В данной статье рассматривается изучение притч как отдельной группы фразеологических единиц в английском и узбекском языках и проблема их усвоения.

Ключевые слова: Пословица, поговорки, притчи, образно-эмоциональное значение, коммуникативная группа, творческий продукт.

Kirish. Fikrni asoslash, tasdiqlash, ma'qullash, emotsional ta'sirni kuchaytirish maqsadida qo'llanuvchi hamda asrlar davomida xalqning hayotiy tajribalaridan chiqarilgan xulosalar ko'rinishida zamonlar osha tilda mavjud bo'lib, frazeologik birliklar va turg'un birikmalarning turli shakllari orasida nutqda ancha faol iste'molda bo'lgan maqollar, matallar, naqlar va hikmatli so'zlar (ingliz tilida proverbs, sayings, aphorisms)ni o'rganuvchi frazeologiya bo'limi paremiologiyadir.

“Shoir va yozuvchi, notiq va fasih, qari va yosh borki, aytilayotgan fikrni asoslamochi yoki mustahkamlamochi bo'lsa, albatta, maqolga murojaat qiladi. Maqol vositasida ifodalangan fikr, berilgan javobni tilning hech bir vositasi almashtira olmaydi yoki maqol darajasida asoslab berolmaydi”. Maqol, matal, hikmatli so'zlar, naqlar tilshunoslikda “paremlar” deb yuritiladi.

Paremlar avlodlar avlodga og'zaki ijod mahsuli sifatida o'tishini hisobga olgan holda adabiyotshunoslikning tadqiq obyekti deb hisoblanadi va ayni damda undagi fonetik, leksik va grammatik stilistik vositalarning, assonans, alliteratsiya, metafora, ritm va qofiyalar, nasihat, kinoya, piching kabi tasviriy vositalarning mavjudligi hamda

tugallangan mazmunga ega bo'lgan gaplardan iborat ekanligi tilshunoslik uchun o'rganish ob'yekti ekanligini ko'rsatadi.

Garvard universiteti professori, xususan o'rta asrlar ingliz tilisiga mansub maqollarning tadqiqi bilan fanga ulkan hissa qo'shgan tilshunos Bartlet J.Uayting fikriga ko'ra, maqol - shakl va shamoiliga ko'ra asliyatidan dalolat beruvchi, xalq sababli dunyoga kelgan iboradir. U o'zi paydo bo'lgan tilda bor haqiqatni so'zlaydi, biroq alliteratsiya va qofiya bilan pardozlagan holda fikrni ifodalaydi.

Materiallar va uslublar. Xalq og'zaki ijodi mahsuli sifatida qaralsa ham yaxlit bir tugallangan fikrni tashuvchi paremlar ma'lum bir jamiyatda yashovchi xalqning turmush tarzi, kundalik hayoti, qarashlarining umumlashma bir xulosasi ko'rinishida bir kishi tomonidan aytilgan bo'ladi. Paremlar shu jihatdan xalq og'zaki ijodiga mansub boshqa adabiy janrlari bo'lgan dostonlar, rivoyatlar, ertaklar, laparlar, aytimlardan farq qiladi.

Ko'rinish turibdiki, qachonlardir bir kishi ma'lum bir nuqtada ko'pchilikka tegishli bo'lgan fikrning so'zda ifodasini topgan va bu esa vaqt o'tib, fikr ifodasining qulay iborasiga aylangan. Ibtidoiy davr og'zaki ijodida maqollar paydo bo'lishining uch jarayoni mavjud:

(1) Xos vaziyatga nisbatan bir shaxsning aniq javobi sifatida shakllanish.

(2) Odamlar tomonidan umumiy vaziyatlarda ularning fikr va his-tuyg'ulariga o'ziga xos shakl va ifoda uslubiga ko'ra mos keladigan ibora tarzda qabul qilinishi.

(3) Vaqt o'tishi bilan iboraning jamoatchilik fikri bilan uyg'unlashib borishi va shuursiz jarayonlar orqali ma'no ehtimoliy o'zgarishlarga uchrashi.

Albatta Firsning bu fikriga qarshi fikrlar ham mavjud. Maqollarning paydo bo'lishi borasida Teylor va boshqalarning fikriga ko'ra "Maqollarga 'ijodiy' (kashf etilgan) yoki 'ommabop' (og'zaki nutq mahsuli) deya farq chegarasi qo'yish imkonsiz. Saqlanib qolgan ma'lumotlarni tarixiy o'rganishdagi aniq chegaralar kabi muammolar barcha maqollarga xos. Biz shunchaki 'ijodiy' maqolning izlarini ijodiy asarlardan, o'rta asrlardan shu kunga qadar mavjud bo'lgan mumtoz asarlar yoki Injilda topishimiz mumkin, binobarin biror 'ommabop' maqol borasida u qadar omadli emasmiz. Ochiq aytish mumkinki, "bir kishining ijod mahsuli" va "xalq ijodi" deya maqollar o'rtasida chegara qo'yish mazmunsiz va shunchaki, tarixiy manbalarda asliyat (kelib chiqishi) qaydini topilish tasodifiy imkonli yoki imkonsiz deb farqlash joiz" [Taylor, 1931: 4-5; qarang: Urbas, 1876: 511; Seiler, 1922: 19-20; Röhrich & Mieder, 1977: 26-27; Mieder, 1996: 236-237].

Ingliz tilida maqol atamasi asosan "proverb" so'zi orqali ifoda etiladi. Ba'zan ko'plab adabiyotlarda: adages, distums, maxims, mottoes, precepts, saws, truism so'zlari orqli ham maqol tushunchasini berishimiz mumkin [Shermamatova, 2023: 488-500]. U holda, maqol tushunchasini o'zbek tilida matal, naql, hikmatli so'z atamalar bilan ifodalash mumkin xulosasini berish mumkinmi? Obyekt nomi sifatida so'zlar turli tillarga xos, yoki bir til ichida sinonimik aloqalarda bo'lgan tarzda bir-biriga to'liq ekvivalent bo'lish imkoniga ega. Masalan, qad, qomat, tana, jism kabi. Biroq, konsept sifatida har bir so'zning orqa sathi o'ziga xos bo'lgan ma'nolar maydoniga, to'liqlanish, jilolanish darajasi va xususiyatlari bilan xoslanadi. Maqol-klassifikator qaysidir jihatiga ko'ra farqlanishga moyil bo'lgan turli kichik guruhlarini o'z a'zolari sifatida birlashtirib turadi.

Voqelikni qismlarga ajratish va umumlashtirib idrok etish faqatgina insonga ato qilingan qobiliyatdir. Alloh bandasiga bu qobiliyatni tuhfa qilmaganda odamzot axborotlar bahriga cho'kib ketgan bo'lar edi. Faqatgina kognitiv qobiliyatgina uchrayotgan yangi obyektlar, hodisalarni oldingi tajribaga tayangan holda qabul qilish imkonini beradi. Cho'pon uchun suruvdagi har bir qo'y hissiy jihatdan har xil bo'lishi mumkin, lekin u ularni guruhlariga ajratish hamda "qo'chqor", "sovliq", "panji", "chori" sifatida tasniflash imkoniga ega [Safarov, 2006:33-34].

Umumiyroq ma'noda, maqollar "yopiq qobiqli, mazmundor, tarbiyaviy mazmunga ega va turg'un, she'riy shakl kasb etuvchi ibora sifatida tasvirlanadi. "Yopiq qobiqli" deyish orqali ularning grammatik birliklarini boshqa birliklar bilan almashtirish imkonsiz [Norrik, 1985, p. 31].

Demak, maqollar boshqa frazeologik birliklarga nutqda tayyor mahsulot sifatida qo'llanishi jihatidan o'xshash, fikrning lo'nda va mazmundorligini, ta'sirchanligini ta'minlab beruvchi, tarbiyaviy agamiatga ega bo'lgan hamda kontekstga ko'ra bir kishiga yoki umumga qaratilgan, qoliplangan ibora deb ta'riflanishi mumkin. Shu o'rinda maqollarning 'tarbiyaviy ahamiyatga' ega ekanligiga alohida e'tiborga olinishi muhim.

Ingliz tilida maqollar (proverbs) va matallar (sayings) o'rtasida umumiylik va fraqli jihatlar mavjud. Ular o'rtasidagi umumiylik tilshunoslar tomonidan ularning turg'un birlikma ekanligi, fikr lo'ndaligi, nutq bilan aloqadorligi bilan belgilaydilar. Matallar esa majoziy-emotsional ma'noga ega bo'lib, kundalik hayot, vaziyat, holat, insonlarning xulq-atvori, xarakter xususiyatlarini ta'rif beruvchi iboradir. Masalan:

When in Rome do as Romans do. - Oqimga qarshi suzma. (maqol)

Greek meets Greek. - Ko'r ko'rni qorong'ida topadi. (matal)

Natijalar va muhokamalar. "Kattaga hurmatda bo'l, kichikka - izzatda" [Mirzayev va boshqalar, 2016]

Tugallangan fikr, pand-nasihat, maslahat, ko'rsatma ma'nosini ifoda etayotgan buyruq gap. Barchaga yo'naltirilgan yoki biror kontekstda bir kishiga qarata aytilishi mumkin. Maqol mataldan mustaqil ma'no ifodalay olish xususiyati bilan farqlanadi" [Madayev, 2010:77]. Demak, keltirilgan misolimiz maqol sifatida tasniflanishi lozim.

"Otasini so'rasang - Ahmadi forig'.

Onasini so'rasang - tovonni yorig'" [Mirzayev va boshqalar, 2016].

Majoziy-emotsional ma'noga ega bolgan, tasviriy-tarifiy ibora. Salbiy ma'no tashiydi va bir shaxsga nisbatan qo'llanadi. Qanday? so'rog'iga javob bo'la oladi. Topish-tutishi, yashash sharoiti haminqadar bo'lgan, biroq maqtanchiq, kekkaygan, o'ziga bino qo'yg'an, otdan tushsa ham, egardan tushmaydigan, ba'zan ortiqcha, o'rinsiz g'ururini ko'rsatuvchi kishiga nisbatan qo'llanadi. Keltirilgan ibora bir domenga mansub sinonimik so'z va so'z birikmalari bilan vaykl - target aloqalariga kirishgan deyishimiz mumkin.

Agar matallarning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olsak, ikkinchi misolimiz kinoya (irony)ga ko'proq mos keladi. Ibra tarkibida metonimik aloqalarni ham topish mumkin. "Tovoni" so'zi butun o'rniqa qo'llanayotgan tana qismidir. Majoziy manodagi 'tovoni yoriq' butun jismi horigan, charchagan, mehnatdan ezilgan kabi ma'nolarga muvofiq keladi. Gussensning har ikki metaforik va metonimik jarayonlar bilan kechuvchi konstualar talqiniga oid metaftonimi g'oyasining isboti ko'zga tashlanadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi, nega Ahmad antroponimi tanlangan nega Rahmat yoki Mahmud emas? Ahmad ismi arab tiliga xos bo'lib, Allohga ko'p hamdu-sanolar aytuvchi, maqtovga, olqishga sazovor kishi ma'nolarini anglatadi va bu ism Muhammad (s.a.v) payg'ambarning sifatlaridan biridir. Rivoyatlarga ko'ra, gunohlardan butunlay yiroq bo'lgan Muhammad (s.a.v) payg'ambardan boshqa har bir mavjudot do'zaxga tushib, gunohlaridan forig' bo'lib chiqar ekan. Forig' - xalos bo'lgan, qutilgan, ozod bo'lgan ma'nosida moddiy va ma'naviy qarashlarga ko'ra yumushdan, tashvishdan qutilish, gunohlardan xalos bo'lish tarzida qo'llanadi. Zimmasidagi vazifa, burch, yumush, tashvishidan, kasallikdan, gunohlaridan xalos bo'lgan inson jismonan va ruhan yengillikni his qiladi. Demak, forig' - yengil - hur - pokiza - toza - yorug' tarzida sinonimik aloqalarga kirisha oladi deyishimiz mumkin. Chunki kirdan forig' bo'lgan ko'zgu yorqinlashadi; yukdan forig' bo'lgan inson yengillikni tuyadi. Hurlik, pokizalik, yengillik tushunchalari fazoviy maydonga tegishli bo'lib, tovonni yoriqlik esa aksincha yer va tuproq bilan bog'liq konstrualarni chaqiradi. Chunki, yorilgan tovon manzarasi ongda uyg'onishi bilanoq, bunga sabab bo'lgan chang va tuproq ham parallel tarzda uyg'onadi. Demak, otasi - fazoga, onasi - yerga mengzalmoqda degan fikrga keladigan bo'lsak, yana qo'shimcha mulohaza uyg'onadi. Nega teskarisi emas? Bu endi xalqning milliy-madaniy qarashlariga bog'liq bo'lgan jihatdir.

Milliy-madaniy qarashlarimizga ko'ra insonning nasl-nasabi ota tomoni bilan belgilanadi, bu ko'plik tomonidan qabul qilingan tamoyil. Lekin fiziologik jihatdan aslida bola ona qornida paydo bo'ladi, oziqlanadi, rivojlanadi. Demak, zamini onaga borib taqaladi. Misolimizning birinchi qismini fikr, go'ya o'rinda atoqli otning qo'llanishi bilan ta'riflanuvchi antonomaziya tropi bilan xarakterlash mumkin.

Ingliz tilida

To kill two birds with one stone. - Bir o'q bilan ikki quyonni urmoq; (biror vaziyatga, maqsadga yo'naltirilgan harakat tarziga hamda erishilgan natijaga nisbatan ta'rif);

To know everything is to know nothing. - Hamma narsani bilish bu hech narsani bilmaslikdir (Bilimning tubi yo'q); (bilish va anglashning cheksizligi borasida xulosa);

To get out of bed on the wrong side. - Chap yoni bilan turmoq; (shaxsning ruhiy, jismoniy va hatto axloqiy holatini ta'riflovchi ibora);

All are not merry that dance lightly. - Har kim o'zidan o'tganini o'zi biladi; (jamiyatda har bir inson albatta ruhiy, ma'naviy, moddiy qobiqlari ichida bo'lishi va bu qobiqlarni anglash uchun chegara borligi haqidagi xulosa) kabi semantik va funksional jihatdan farq qiluvchi, frazeologik guruhlarining turg'un birikmalarni kuzatish mumkin. Kunin tasnifiga ko'ra, maqollar va nasihatli so'zlar, matallar fraseologik birliklarning kommunikativ guruhini, kirish so'zi sifatida qo'llanuvchi iboralar hamda respons (javob so'zi sifatida qo'llanuvchi - D.I.) iboralar pragmatik guruhni tashkil etadi [Kunin, 1970].

Tilda mavjud bo'lgan har bir so'z, so'z birikmalari umumbashar xoslikdan tashqari milliy va madaniy xususiyatlarga ham egadir. Bu esa insonlarning olamni anglashlari, tafakkur etishlaridagi o'ziga xos farqlar bilan belgilanadi. Darhaqiqat, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir. Masalan, oy - moon so'zi o'zbek xalqi uchun ham, ingliz xalqi uchun ham aynan koinot jismi, yer yo'ldoshi hisoblanadi. Biroq, o'zbek tilida oy leksemasi go'zallik timsoli sifatida oydek go'zal, oy yuzli; nozikta'b qizlarga nisbatan oyimcha hamda qizlarning ismlariga oy so'zining qo'shilishi fikrimiz isbotidir.

Har bir xalq olamni, undagi mavjudliklarni o'zicha anglaydi, tafakkur etadi va talqinlaydi. Har bir inson o'ziga xos shuurga, quvvai hofizaga ega. Tafakkur birlamchimi yoki madaniyatmi, bu masala javobi ochiqdir biroq har ikkisi uchun xizmat qiluvchi vosita tildir. Tafakkur va madaniyat hosilalari

tilda o'z aksini topadi. Maqollar, matallar, hikmatli so'zlarda ham albatta tilda mavjud bo'lgan boshqa barcha so'zlar va so'z birikmalaridagi kabi milliy-madaniy qarashlar, turmush sharoiti, xalqning geografik o'rni, ijtimoiy hayoti va shunga o'xshash boshqa ekstralingvistik omillar ta'siri o'z aksini topadi. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Demak, albatta paremlar har bir millatning o'ziga xosdir. Bu fikr to'laligicha tog'ri emas, zero umuminsoniyatga tegishli bo'lgan ijobiy xislatlar, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat, vafodorlik, sabr-toqat kabi sifatlarni targ'ib etishga, singdirishga, tarbiya toptirishga qaratilgan maqollar har ikki tilda ham mavjud. "O'zbek va ingliz xalq maqollarida mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash maqollarning ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmang, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir. Buning asosiy sababi shuki, barcha insoniyatga xos xislatlar hamma millatga xosligidadir. Biroq biz bu fikrlarimiz bilan o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar aynan bir xil qo'llanilish o'rniga ega degan fikrni keltirolmaymiz"[Shermamatova, 2023].

Masalan ingliz tilidagi Rome wasn't built in a day maqolida sabr-toqat komponenti bor. O'zbek tilidagi Sabr tagi - sariq oltin maqoliga muqobil bo'la oladi. Biroq, Aql - Hasan, odob - Husan; Ichgani oshi yo'q, itining oti "Boytevat"; Ishni Ismat qiladi, lofni Toshmat uradi, ishini qiladi asbob, egasi uradi lof; [Mirzayev va boshqalar, 2016] kabi maqollarda faqat o'zbek mentalitetiga xos xususiyatlar o'z aksini topgan va agar ikki tilni chog'ishtirib o'rganish maqsadidan kelib chiqilsa, bu aks hodisot deb qabul qilinishi, ya'ni ingliz tilida ham aynan o'sha xalq mentalitetigagina xos maqollar mavjudligini hisobga olish va tadqiq etish zaruratini ko'ndalang qo'yadi.

Xulosa. Paremlarni o'ragnish borasida ko'plab tilshunos olimlar turli yondoshuvlar asosida izlanishlar olib borganlar va shu orqali ularning tilshunoslik sohasi rivojiga qo'shgan hissalar e'tirofqa loyiq. Shunga qaramay maqollar, matallar, hikmatli so'zlar, naqlar va aforizmlar o'rtasida aniq chegaralar qo'yish masalasi ochiq qolmoqda degan fikrdamiz.

ADABIYOTLAR

1. Berdiyev H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug'ati, T., 1984.
2. Firth, R. (1927). Proverbs in native life, with special reference to those of the Maori. *Folklore* (London) 38, 134-153 and 245-270.
3. Goossens, Louis. 1990. Metaphtonymy: the interaction of metaphor and metonymy in expressions of linguistic action. *Cognitive Linguistics*.
4. Kunin, A. *English Phraseology*. Moscow: High School, 1970. Print.
5. Madaev O. "O'zbek xalq og'zaki ijodi" o'quv qo'llanma. - Toshkent: "Mumtoz so'z", 2010.
6. Mirzayev, T. va boshqalar. O'zbek xalq maqollari, - Toshkent, 2016.
7. Norrick, N. *How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs*. Berlin: Mouton Publishers, 1985.
8. Safarov, Sh. *Kognitiv tilshunoslik*, - Jizzax, Sangzor, 2006.
9. Taylor, A. (1931). *The Proverb*. Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press. Rpt. as *The Proverb and an "Index to The Proverb"*. Hatboro, Pennsylvania: Folklore Associates, 1962. Copenhagen: Rosenkilde and Bagger, 1962; rpt. again with an introduction, a bibliography and a photograph of Archer Taylor by W. Mieder. Bern: Peter Lang, 1985.
10. To'rayeva J. Oila nutqida maqollarning lingvistik xususiyatlari. *Lingvistika (o'zbek tili) mut.-sisligi mag-ri. ...diss.* - Termiz, 2023.
11. Shermamatova, S. Ingliz va o'zbek maqollarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek tilidagi ekvivalentlari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. www.oriens.uz., 2023, April 3(4).
12. Whiting, Bartlett, J. *Proverbs in Earlier English Drama with Illustration from Contemporary French Plays*. Cambridge Mass: Harvard University Press: New York; 10. Octagon Books, 1983.
13. Goossens, Louis. 1990. Metaphtonymy: the interaction of metaphor and metonymy in expressions of linguistic action. *Cognitive Linguistics*.
14. <https://theenglishdigest.com/a-list-of-1000-proverbs-in-english-with-their-meaning/>